

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

Son 4. Jild 4.

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 4 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Ҳожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудир;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Қаюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохидат Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

Содиқова Шоҳида Мархабобевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Qurbonov Murodjon Dehqonboy o'g'li</i> "KASHKULI SALIMIY" ASARIDA USMONIY HUKMDORLAR TARIXINING YORITILISHI.....	12-17
<i>Ismoilova Diyoraoy Xursandjon qizi</i> AMIR NASRULLOH DIPLOMATIYASI	18-23
<i>Tursunov Farrux Fulomovich</i> ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДИДАГИ ТОЖИКЛАРГА ХОС УРФ-ОДАТ ВА МАРОСИМЛАР	24-28
<i>Usmonaliyev Isroiljon Ibrohimjon o'g'li</i> FARG'ONA VODIYSIDA "O'ZBEK" ETNONIMINING TARQALISHI	29-34
<i>Djurayev Ikrom Nematovich</i> YEVIROOSIYO CHORVADOR QABILALARINING FARG'ONA VODIYSIGA KIRIB KELISHI.....	35-40
<i>Esanova Nilufar Pulatovna</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDA YENGIL SANOAT SOHASIDAGI O'ZGARISHLAR	41-46
<i>Abduraхимова Сабоҳат Эргаш қизи</i> БУХОРО АМРЛИГИ ДАВРИДА ЧИРОҚЧИ ТУМАНИНИНГ ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ ТАРИХИ	47-53
<i>Toshturov Shuxrat</i> MUSTAQILLIKKACHA BO'LGAN DAVRDA NAVOIY VILOYATI SANOAT KORXONALARINING EKOLOGIK MUHITGA TA'SIRI	54-60
<i>Kanimkulov Olimjon Sheraliyevich</i> AKADEMIK YAHYO G'ULOMOV FAOLIYATI HAQIDA QAYDLAR ("XORAZMNING SUG'ORILISH TARIXI" ASARI MISOLIDA).....	61-65
<i>Begniyazova Gozzal Allambergenovna</i> QORAQALPOQ XALQ ERTAKLARINING YIG'ILISHI VA NASHR QILINISHI.....	66-70

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

<i>Султонов Баходир Файзуллаевич, Тураева Гулизахро Каххоровна, Норбўтаев Бахтиёр Абдурахимович</i> СИРДАРЁ ВИЛОЯТИ ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА ДОНЛИ ЭКИНЛАР ХОСИЛДОРЛИГИНИНГ 2024-2027 ЙИЛГАЧА БЎЛГАН ПРОГНОЗ ПАРАМЕТРЛАРИ.....	71-78
<i>Abdiganieva Zarapshan Salievna</i> YANGI O'ZBEKISTONDA AHOLI TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	79-85
<i>Otaxonova Odinaxon Inomovna</i> QORAMOLCHILIK MAHSULOTLARI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA OZUQA BAZASINI YAXSHILASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	86-94
<i>Рахимов Ойбек Бахтиёрович</i> СУҒУРТА ХИЗМАТЛАРИ БОЗОРИДА МАРКЕТИНГ ФАОЛИЯТИНИ РЕЖАЛАШТИРИШ АСОСЛАРИ	95-99
<i>Хушмурадов Оман Намозович</i> СУВ ХЎЖАЛИГИНИ БОШҚАРИШНИНГ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ	100-110

<i>Saitkamolov Muxammadxo'ja Sobirxo'ja o'g'li, Karabayev Rustam Zafarovich</i> BULUTLI TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA BIZNES JARAYONLARNI TASHKIL ETISH YO'LLARI	111-125
<i>Фаттахова Муниса Абдухамитовна</i> ПОНЯТИЕ И ПУТИ ЭФФЕКТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ КРЕДИТНЫМ ПОРТФЕЛЕМ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ	126-133
<i>Isayev Jahongir Muzaffarovich</i> SANOAT KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT TIZIMINI TA'MINLASH IQTISODIY МЕХАНИЗМНИНГ АСОСИЙ YO'NALISHI SIFATIDA	134-140
09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ	
<i>Tilavova Umida Qahramonovna</i> RAQAMLI JAMIYATLAR TIZIMIDA INFORMATSION ETIKA KATEGORIYA VA ТАМОЙИЛЛАРИНИНГ АНАМИЯТИ	141-147
<i>Yulchiyev Avazbek Maxamadjonovich</i> IJTIMOIY TEKNOLOGIYALAR HAQIDAGI G'OYALARNING SHAKLLANISH EVOLYUTSIYASI	148-154
<i>Каримова Гулчеҳра Абдукаримовна</i> ДУНЁ ДИНЛАРИ ВА ТАЪЛИМОТЛАРДА ОТАЛИКНИ ТУШУНИШ ВА УНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИХАТЛАРИ	155-163
<i>Turabova Sevara Kattaqulovna</i> ISLOM FALSAFASIDA DALILLASH VA VAHS YURITISH USULI ZAMONAVIY ARGUMENTLASH NAZARIYASI TALQINIDA	164-168
<i>Muminov Nozim Naimovich</i> THE PHENOMENOLOGICAL APPROACH IS THE KEY TO UNDERSTANDING THE SPREAD AND TRANSFORMATION OF SUFISM IN THE WEST	169-175
<i>Турсунов Мухиддин Болтаевич</i> СОЦИАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ СОВРЕМЕННОЙ МОЛОДЁЖИ	176-180
<i>Mamarasulov Ulug'bek Umirzoqovich</i> SPORT TURLARINING FALSAFIY-ESTETIK TAHLILI	181-184
10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ	
<i>Исанова Феруза Тулқиновна</i> ЎЗБЕК ТИЛИДА ХАЛҚАРО ҲУҚУҚ СОҲАСИГА ОИД ЛЕКСИК БИРЛИКЛАР ВА УЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИХАТЛАРИ	185-191
<i>Петрухина Наталья Михайловна</i> КОРАНИЧЕСКИЕ МОТИВЫ В ТВОРЧЕСТВЕ А.С.ПУШКИНА И ЕГО СОВРЕМЕННИКОВ	192-197
<i>Исаров Оман Рисалиевич</i> ЎЗБЕК ВА ИНГЛИЗ ТИЛЛАРИДА ТАКСИС КОНВЕРБИАЛ ВЕРБАЛИЗАЦИЯСИ	198-205
<i>Родина Ирина Витальевна</i> АНТИНОМИЧЕСКАЯ ПАРА «МЕСТЬ» И «ПРОЩЕНИЕ» В ПОВЕСТИ-СКАЗКЕ Л. БОРОДИНА «ГОД ЧУДА И ПЕЧАЛИ»	206-211
<i>Ataeva Gulchekhra Bakhtiyorovna</i> THE ROLE OF IDIOMS IN ENHANCING BUSINESS COMMUNICATION: A STUDY ON THE USAGE OF IDIOMS IN BUSINESS LETTERS	212-220

<i>Erkinova Marxobo</i> ASSOTSIATIV MAYDON HOSIL QILISHDA LINGVISTIK OMILLARNING O'RNI	221-229
<i>Gulyamova Shahzoda Baxtiyor qizi</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI MATNLARNING SINTAKTIK STRUKTURASI VA PRAGMATIK XOSLANISHI	230-234
<i>Batyrkhanova Madina Oybekovna</i> THE SOMATIC CULTURAL CODES IN THE STUDY OF ENGLISH, RUSSIAN AND UZBEK PHRASEOLOGISMS	235-244
<i>Aslonov Shahram Sherzod ugli, Saidova Marjona Abdimutal qizi</i> PECULIARITIES OF TRANSLATION OF POLITICAL TEXTS IN SIMULTANEOUS INTERPRETATION	245-250
<i>Olimova Dilafruzxon Baxtiyorjon qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SUBYEKTIV VAHONING IFODALANISHI	251-254
<i>Bobojonov Dilshod Jumaqul o'g'li</i> INGLIZ VA O'ZBEK GAZETA SARLAVHALARIDA PUBLISISTIK USLUB BELGILARINING NAMOYON BO'LISHI	255-260
<i>Абдуллаева Нилуфар Рамазоновна, Шаймарданова Мухлиса Усмановна</i> СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ КОНЦЕПТА “РАСТЕНИЕ” В СОПОСТАВЛЯЕМЫХ ЯЗЫКАХ	261-266
<i>Хайруллоева Сitora Lutfulloevna</i> PSYCHOLOGICAL NOVELS OF US AND THE DEVELOPMENT OF PSYCHOLOGYSMS	267-272
<i>Qudratova Muxiba Kamolovna</i> “LYUIS KERROLLNING ALISA MO' JIZALAR MAMLAKATIDA ASARIDAGI HAYVON OBRAZLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI”	273-279
<i>Убоженко Анна Станиславовна</i> ОСОБЕННОСТИ ТЮРКСКИХ ЗАИМСТВОВАНИЙ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ	280-285
<i>Тухтаева Наргисхон Исамутдиновна</i> ОТРАЖЕНИЕ ДУХОВНОГО УПАДКА ОБЩЕСТВА И ЕГО ПОСЛЕДСТВИЙ В ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЕ	286-292
<i>Gulnora Xolmurodova Sattorovna, Bo'ronova Mekkamtosh Xoliqulovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK LISONIY MANZARASIDA MAQOLLARNING O'RNI	293-297
<i>Алибаева Лола Намазовна</i> ЖЕНСКИЕ ОБРАЗЫ В РАССКАЗАХ Л. ПЕТРУШЕВСКОЙ	298-303
<i>Eshqurbonova Aziza Bozor qizi</i> DIALOGIK NUTQDA SAVOLLARNING IFODALANISHI	304-308
<i>Norova Rahima Fayzulloevna</i> O'ZBEK VA INGLIZ ADABIY ERTAKCHILIGIDAGI SEHRLI VOSITALARNING QO'LLANISHIDA O'XSHASH JIHATLAR	309-316
<i>Egamberdiyeva Iroda Abdurahimovna</i> TRANSLATIONS OF HISTORICAL WORKS INTO ENGLISH	317-323
<i>Axmedova Adolat Ravshan qizi</i> GASTRANOMIYA TUSHUNCHASI HAMDA GASTRANOMIK REKLAMA MATNLARI	324-330

<i>Asqarova Madina Boymurod qizi</i> KORPUS LINGVISTIKASIDA MATN ANNOTATSIYASINING LINGVISTIK MUAMMOLARI	331-334
--	---------

<i>Калниязов Есемурат Шамшетович</i> ГОСТЕВОЙ ЭТИКЕТ И СИСТЕМА ЦЕННОСТЕЙ	335-342
---	---------

12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

<i>Bahodir To'raev</i> HUQUQIY MADANIYAT VA HUQUQIY TARBIYANING DEMOKRATIK DAVLAT RIVOJLANISHIDAGI ROLI	343-351
---	---------

<i>Турсоатов Содиқ</i> РАҒБАТЛАНТИРУВЧИ ҲУҚУҚИЙ СИЁСАТ ТУШУНЧАСИ ВА УНИНГ МАЗМУН-МОҲИЯТИ	352-357
--	---------

<i>Хидиров Фурқат Шукуруллаевич</i> МАҲАЛЛА ҲУҚУҚ-ТАРТИБОТ МАСКАНИ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ТАРТИБИНИНГ АСОСИЙ ВАЗИФАЛАРИ	358-363
---	---------

<i>Рахимбаев Уткир Файзуллаевич</i> ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ КРИТЕРИЕВ ОЦЕНКИ ИНФРАСТРУКТУРЫ И СЕРВИСА ДЛЯ ТУРИСТОВ	364-372
---	---------

<i>Турсынбаев Азизбек Халмурзаевич</i> МЕЖВЕДОМСТВЕННОЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ КАК СПОСОБ РЕАЛИЗАЦИИ ИСПОЛНИТЕЛЬНОЙ ВЛАСТИ	373-377
--	---------

<i>Yakubov Abduraxmon Turayevich</i> TA'LIM HUQUQINING HUQUQIY SAVODXONLIKNI AMALGA OSHIRISHDAGI O'RNI	378-382
---	---------

<i>Rasulov Salimbek Baxtiyor o'gli</i> YEVROPA KENGASHINING KORRUPSIYA UCHUN JINOIY JAVOBGARLIK BO'YICHA KONVENSIYASI – KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING ZAMONAVIY XALQARO HUQUQIY ASOSLARIDAN BIRI SIFATIDA	383-387
---	---------

13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

<i>Хайров Расим Золимхон угли</i> АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА	388-395
--	---------

<i>To'rayev Panji To'xtayevich</i> OLIY TA'LIM MUASSASASIDA KURASHCHILARNI PSIXOLOGIK JIHATDAN TAYYORLASH	396-400
---	---------

<i>Xushnazarova Ma'mura Nodirovna</i> TALABALARNI KASBIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHDA IJTIMOIIY FAOLLIKNING AHAMIYATI	401-406
--	---------

<i>Yuldasheva Sayyora Aliaskarovna</i> TA'LIM TIZIMIDA INGLIZ TILINI INTEGRATSION O'QITISH	407-411
---	---------

<i>Turdimurodov Dilmurod Yo'ldoshevich</i> SPORT MASHG'ULOTLARI JARAYONIDA PEDAGOGIK NAZORATNING AHAMIYATI	412-418
---	---------

<i>Абдувахобов Искандер, Гизатулина Ольга Ивановна</i> ОРГАНИЗАЦИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В СМЕШАННЫХ СРЕДАХ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ВУЗА	419-426
<i>Назарова Озода Шавкатовна</i> СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ И МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В ВЫСШЕМ УЧЕБНОМ ЗАВЕДЕНИИ	427-432
<i>Pirnazarova Sevara Doniyor qizi</i> OLIQ O'QUV YURLARIDA XORIJIY TILNI O'QITISHDA O'YIN USULLARINI QO'LLASH	433-438
<i>Ko'ziyeva Gulnoza Maxamadaliyevna</i> BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARINING PEDAGOGIK SALOHİYATINI OSHIRISH METODIKASI	439-444
<i>Умирзокова Сурайё</i> ТАЛАБАЛАРИНИНГ КИНЕТИК ИНТЕЛЛЕКТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАР ТАЖРИБАСИ	445-451
<i>Olimova Nigora</i> MUVAFFAQIYATLI O'RGANISHDA SINFINI BOSHQARISH KO'NIKALARINING AHAMIYATI	452-463
<i>Nabiyeva Firuza Odil qizi</i> “ELEKTROMAGNETIZM” BO'LIMINI O'QITISHDA AMALIY MASHG'ULOTLARNING AHAMIYATI	464-471
<i>Sobirova Oygul Alimovna</i> BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARIDA METODIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING MAVJUD HOLATINI TAHLILYIY VAHOLASH	472-479
<i>Shermatov G'ulom Kaxxorovich</i> IMPROVING THE TECHNIQUE OF BADMINTON SPORTS TRAINING	480-486
<i>Shamirzayeva Zarifa Xudoyorovna</i> TALABALARDA KASBIY KO'NIKALARNI SHAKLLANISHIDA MIKROTA'LIM O'QITISH TEKNOLOGIYASINING SAMARALI JIHLTLARI	487-492
<i>Ziyadullayeva Dilafruz Xudayberdiyevna</i> O'SMIRLARDA YETAKCHILIK XUSUSIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA KOMPETINSIYAVIY FAOLIYATNING PEDAGOGIK ASOSLARI	493-498
<i>Muydinov Firuzjon Farxodjonovich</i> TIBBIY TA'LIM TALABALARIDA MEDIAKOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI	499-505
<i>Egamberdiyeva Feruza Abdimannonovna</i> MULTIMEDIA TEKNOLOGIYALARIGA ASOSLANGAN DASTURIY TA'MINOTNI LOYIHALASH	506-510
<i>Худойбердиева Дурдона Баходир қизи</i> ЛИЧНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННАЯ ТЕХНОЛОГИЯ ОБУЧЕНИЯ В РАБОТЕ С ОДАРЕННЫМИ ДЕТЬМИ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА	511-516
<i>Курбонов Дониёрбек Кахрамонович</i> ОБУЧЕНИЕ ПОЭЗИИ С ПРИМЕНЕНИЕМ СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ	517-524

Shamsiddinov G'iyos Xusniddin o'g'li, Jurayeva Feruza Baxtiyor qizi

IQTISODIYOT YO'NALISHI TALABALARIGA EKONOMETRIKA FANINI O'TISHNING

INTERAKTIV USULLARI 525-532

Эрназаров Алишер Эргашевич, Бекмурадов Зариф Хуррамович

ЎҚУВ МАШҒУЛОТЛАРИНИНГ МОДУЛЛИ ВА ЛОЙИҲАЛАШТИРИЛГАН ТУРЛАРИ ҲАМДА

АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ 533-539

Bobojonov Dilshod Jumaqul o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, tayanch doktorant

E-mail: dilshod.bobojonov.8007@gmail.com

INGLIZ VA O'ZBEK GAZETA SARLAVHALARIDA PUBLISISTIK USLUB BELGILARINING NAMOYON BO'LISHI

Annotatsiya. Zamonaviy jamiyatning tez o'sib borishini hisobga olib, ommaviy axborot vositalari, jumladan, media tilining bir qismi sifatida gazetalar tashqi ta'sirga faol javob qaytarmoqdalar va tilga oid ifodalash vositalarini rivojlantirib, moslashtirmoqdalar. Gazeta sarlavhalari tilida axboriy, tahliliy va badiiy-publisistik janrga oid materillar haqidagi ma'lumotni to'liq aks ettirishga qaratilgan axborotni maksimal tarzda qisqa va aniq berishga harakat qilinadi. Sarlavha qisqalikni talab qilgani sababli murakkab va uzun iboralar qo'llanilmaydi. Gazeta maqolalarining sarlavhalari qisqa, lekin informativ bo'lishi kerak. Ular gazeta o'quvchilarning e'tiborini tortishlari va darhol maqolaning mazmuni haqida tasavvur berishlari zarur bo'ladi.

Kalit so'zlar: OAV, media tili, pragmatika, sarlavha xususiyatlari, ekspressivlik, mediamatn, maqola, tahlil.

Bobojonov Dilshod Jumaqul ugli

Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy, Doctoral student

APPEARANCE OF PUBLICISTIC STYLE SIGNS IN ENGLISH AND UZBEK NEWSPAPER HEADLINES

Abstract: Taking into account the rapid growth of modern society, mass media, including newspapers, are actively responding to external influences, and are developing and adapting linguistic means of expression. In the language of newspaper headlines, an attempt is made to give information as short and precise as possible, aimed at fully reflecting the information about news, analytical and artistic-journalistic materials. Because the title requires brevity, complex and long phrases are not used. Headlines of newspaper articles should be short but informative. They need to attract the attention of newspaper readers and immediately give an idea about the content of the article.

Key words: mass media, media language, pragmatics, title features, expressiveness, media text, article, analysis.

Бободжонов Дилшод Джумакул угли

Денауский институт предпринимательства и педагогики,

Базовый докторант

ПОЯВЛЕНИЕ ЗНАКОВ ПУБЛИЦИСТИЧЕСКОГО СТИЛЯ В ЗАГОЛОВКАХ АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ ГАЗЕТ

Аннотация. Учитывая стремительный рост современного общества, средства массовой информации, в том числе газеты, активно реагируют на внешние воздействия, разрабатывают и адаптируют языковые средства выразительности. В языке газетных заголовков делается попытка дать информацию максимально кратко и точно, направленная на полное отражение информации о новостных, аналитических и художественно-публицистических материалах. Поскольку заголовок требует краткости, сложные и длинные фразы не используются. Заголовки газетных статей должны быть краткими, но

информативными. Они должны привлечь внимание читателей газеты и сразу дать представление о содержании статьи.

Ключевые слова: СМИ, метаязык, прагматика, особенности заголовка, выразительность, медиа текст, статья, анализ.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I4Y2024N36>

Kirish. Gazeta sarlavhalarida publitsistik uslub belgilarining namoyon bo'lishi maqolaning tuzilishi, janri gazetxonlarning diqqatini jalb qilishda muhim rol o'ynaydi. Ma'lumki, gazeta sarlavhalari qisqalikni talab qiladi, ammo qiziqish uyg'otishi mumkin bo'lgan asosiy ma'noni ko'rsatuvchi so'zlardan iborat bo'ladi. Bundan tashqari, maqolaning tuzilishi mantiqiy bog'liqlik prinsiplariga rioya qiladi, ya'ni asosiy axborotdan boshlanib, asta-sekin batafsil tahlilga o'ta boshlaydi. Gazeta-publitsistik uslubning til vositalarini tanlashdagi turli-tumanlik va ekspressivlik vazifasi ushbu uslubning keng ko'lamli ekanligidan dalolat beradi. Shu sababga ko'ra publitsistika nafaqat adabiyotda, balki mediamatn yaratishda ham eng mazmunga boy uslub hisoblanadi. Publitsistik uslubning muhim farqi shundaki, ushbu uslub gazeta-publitsistika uslubi doirasida matnlarga baholash tusini beruvchi yuqori darajadagi emotsionallikdan iboratdir. Gazeta publitsistikasi janri sifatida bugungi kunning dolzarb ijtimoiy-siyosiy masalalariga e'tiborini qaratadi. Uning predmeti jamiyatda, siyosatda va iqtisodagi muhim masalalarni yoritishga qaratilgan bo'lib, har bir o'quvchining manfaatlari va ehtiyojlariga qaratilgan mavzularni yoritib keladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Gazeta sarlavhalarida publitsistik uslubning namoyon bo'lishi masalasi borasida bir qator olimlar – tilshunoslar tadqiqot ishlarini olib borganlar. Jumladan, A.S.Nekrasovanning “Виды, типы, функции газетного заголовка и его место в тексте статьи СМИ” nomli maqolasida gazeta sarlavhalari, ularning turlari, o'zaro o'xshash va farqli jihatlar kabi masalalarga alohida ahamiyat qaratilgan. S.A.Salmanovanning “Заголовков как важнейший компонент текста” nomli tadqiqot ishida esa sarlavhalar va matnlar o'rtasidagi muhim aloqalarga e'tibor berilgan.

Muhokama. Publitsistik uslub gazeta, jurnallar, radio, televideniye, internet hamda ba'zi bir jihatlarida ommaviy chiqishlar kabi ommaviy axborot vositalari til vositalarini ishlatishlarida namoyon bo'ladigan adabiy tilning alohida funksional shaklidir. Hozirgi vaqtda ommaviy axborot vositalari nafaqat xabardor qilishda, balki davlat va jahon miqyosida targ'ibot tarqatishda ham muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy jamiyatning tez o'sib borishini hisobga olib, ommaviy axborot vositalari, jumladan, media tilining bir qismi sifatida gazetalar tashqi ta'sirga faol javob qaytarmoqdalar va tilga oid ifodalash vositalarini rivojlantirib, moslashtirmoqdalar. [2]

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, gazeta-publitsistik uslub bir nechta asosiy tasniflarga ega. **Birinchi**dan, u keng auditoriyaga yo'naltirilgan bo'lib, hammabop va hamma uchun tushunarli bo'lishga lozim. **Ikkinchi**dan, ushbu uslub ko'pincha ham ijobiy, ham salbiy emotsional baholash elementlarini o'z ichiga oladi, ana shu xususiyati mediamatnlarni ifodali va gazetxon uchun axborotning ta'sir kuchini oshirishga xizmat qiladi. **Uchinchi**dan, ekspressivlikka yo'g'rilgan til vositalari: paremiya, tilning tasviriy vositalari, pretsedent ifoda, emotsional tusga ega bo'lgan so'z va hokazolarni qo'llash faolligining yuqori ekanligi. **To'rtinchi**dan, gazeta-publitsistik uslubda janr nuqtai nazaridan nutqda turli-tuman til vositalarini qo'llash hamda matnga jo'shqinlik hissini uyg'otuvchi birikmalarni qo'llash va axborot mazmuniga qarab turli

til uslublarining aralash elementlarining ishtiroki. Albatta, ushbu sanab o'tilgan toifalar gazeta sarlavhasining shakllanishida o'z o'rniga egadir. [6]

Ma'lumki, gazeta maqolalari ma'lumotni yoritishda, fikrlarni ifodalashda neytrallikka intilishadi. Ular odatda kuchli emotsional bo'yoqli bo'lishdan qochib, fakt va dalillarni taqdim qiladilar. Shuningdek, gazeta tili keng auditoriyaga mo'ljallangan bo'lishi unda maxsus terminlarni chegaralaydi va slenglar bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi. Gazetada o'quvchilar uchun hammasi tushunarli va ommabop bo'lishi kerak.

Shuning bilan birga, gazetalarda axborot konkret va aniq tarzda taqdim qilinish talabi sarlavhalarni konkret tanlanishiga sabab bo'ladi. Jurnalistlar umumiy umumlashtirishlarga yo'l qo'ymaslikka harakat qilishadi va detallar hamda faktlarni taqdim qilishadi. Gazetalar joriy hodisalar va yangiliklarni yoritishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Ta'kidlash lozimki, gazetalar obyektiv va muvozanatlashtirilgan bo'lishlari uchun voqea va muammoga nisbatan turli nuqtai nazarlarni taqdim qilishga harakat qilishadi va bu holat maqola uslubini tanlash imkonini beradi. Ba'zi gazetalar ularga alohida xoslikni beradigan o'zlarning noyob uslublariga ega bo'lishlari mumkin. Bu albatta gazeta turi bilan bog'liqdir. [4]

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, gazeta sarlavhasi har qanday maqolaning muhim elementi hisoblanib, o'quvchiga keng qamrovli gazeta materiallarini o'rganishga va eng qiziqarli maqolalarni tanlashga yordam beradi. Gazetaxonga gazeta materiali haqida qisqa ma'lumot berish orqali uni maqola bilan tanishishga undash yoki qiziqishini so'ndirish mumkin. Psixologlarning bu borada olib borgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, gazetxonlarning taxminan 85 foizi faqat sarlavhalarga e'tibor berishadi. [1] Yuqorida ta'kidlanganidek, gazeta sarlavhasi o'quvchi e'tiborini jalb qilish uchun rang-barang til vositalarini qo'llashi zarur, lekin bunda maqolaning asosiy g'oyasini aniq yetkazish talabi qo'yiladi. sarlavhalarni yaratishda informativlik xususiyati ustunlik qiladi.

Sarlavha matbuot materialida ifodalangan mazmuni dastlabki axborot tarzida yetkazuvchi, o'quvchini tanishtiruvchi va diqqatni jalb qiluvchi muhim vosita hisoblanadi. Sarlavhaning o'rinli tanlanishi va qo'llanilishi matbuot materiali matnining, unda ifodalangan fikr-mulohazalarning ta'sirchanligi, ekspressiv qimmatini yanada oshiradi. Bu uning pragmatik jihatdan tahlilini amalga oshirilishini belgilaydi.

Natija. Ingliz va o'zbek gazeta sarlavhalarining lingvistik xususiyatlari, farqli va o'xshash tomonlarining tahlilini amalga oshirishda ularning quyidagi tomonlariga e'tiborni qaratish zarurati tug'iladi: gazeta sarlavhalarining struktur-grammatik tuzilishi; gazeta sarlavhalarida leksik vositalarning o'ziga xosliklari; gazeta sarlavhalarining uslubiy xususiyatlari va ekspressivligi; gazeta sarlavhalarining gazeta janrlarida qo'llanishdagi o'ziga xosliklar va matn bilan uyg'unligi; gazeta sarlavhalarining milliy-madaniy va pragmatik xususiyatlari va hokazo. O'zbek ijtimoiy-siyosiy gazetalaridagi sarlavhalar o'zlarining spesifikalariga ega bo'ladilar, chunki ular voqealar haqidagi axborotni taqdim qilish, siyosat va jamiyat sohasida analitik va sharhlarni yoritishga yo'naltirilgan bo'ladi. Quyida shunday gazetalaridagi sarlavhalarning ba'zi o'ziga xos belgilari berilgan:

1. Siyosiy yo'naltirilganligi: sarlavhalar ko'pincha siyosatchilar, siyosiy hodisalar va muhokamalarni aks ettiradi. ular siyosiy liderlar, partiyalar, tashkilotlar nomlarini o'z ichiga olishlari mumkin. Misol: *"Prezident soliq islohoti haqidagi qonunni imzoladi"*; *"O'zbekiston Oliy Majlisi delegatsiyasi AQSH Kongressida qator uchrashuvlar o'tkazdi"*; *"Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"*; *"Prezidentlar*

Texnopark faoliyati bilan tanishdi”; *“Muzokaralar natijasi bitimlarda mustahkamlandi”* va hokazo.

2. Ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan axborotni yoritishga qaratilgan sarlavhalar: bunday sarlavhalar odatda jamiyat va davlat uchun muhim bo‘lgan voqealarga urg‘u beradilar. Ular o‘z ichiga “muhim qaror”, “tarixiy fursat”, “inqiroz”, “kelishuv”, “qo‘yilmoq”, “qilmoq” kabi so‘z va iboralarni so‘roq gap ishlatilishi mumkin. Misol uchun: “Yadro qurolsizlantirish bo‘yicha davlatlararo tarixiy kelishuv”; [“O‘zini oshkor qilmagan qashqadaryolik tadbirkor muhtojlarga 14 ta yangi uy sovg‘a qildi”](#); “O‘zbekiston temir yo‘llari” ishchilarini majburiy-ixtiyoriy ravishda to‘lanmaydigan ta‘tilga chiqarilayotgani rostmi?”; [“O‘zbekiston sharoitiga mos daraxtlarni yetishtirish, payvandlab ko‘paytirish ishlari qanday yo‘lga qo‘yilmoqda?”](#) va hokazo. [7]

3. Analitika va sharhlar: ba‘zi sarlavhalar mualliflarning fikrlari va tahlillarini o‘z ichiga oladi. Ular *“ekspert fikr-mulohazasi”* yoki *“sharhlar”* kabi analitik kontekstni ko‘rsatuvchi iboralarni ishlatishi mumkin: *“Ekspert fikr-mulohazasi: Postpandemiya olamida iqtisodiy istiqbollari”*; *“O‘zgarishlar pallasida: saylov oldidagi siyosiy manzara tahlili”*; *“Global muammolar: mamlakatlar yangi dunyo voqeligiga qanday moslashmoqda”*; *“Iqtisodiyot ekologiyaga qarshi: global isish sharoitida muvozanatni topish”*; *“Pandemiya va siyosat: davlat boshqaruvi uchun inqirozdan saboqlar”*; *“Huquq uchun kurash: tenglik uchun harakatdagi yangi bosqichlar”* va hokazo.

4. Korrupsiya haqidagi sarlavhalar: ijtimoiy-siyosiy gazetalarda ko‘pincha siyosat va jamiyatda sodir bo‘ladigan turli xil ko‘rinishdagi korrupsiya va axloqiy me‘yorlardan chetga chiqish bilan bog‘liq bo‘lgan sarlavhalar uchrab turadi. Misol: *“Hukumatda sodir bo‘lgan janjal: Ministr korrupsiyada ayblanmoqda”*; [“Toyloq tumanida suyultirilgan gaz sotuvidan tushgan mablag‘larni o‘zlashtirgan shaxslar aniqlandi”](#); [“Samarqandda fermer xo‘jaligi yer maydonini noqonuniy sotilishining oldi olindi”](#); *“Toshkent viloyatida yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash va yuborishdagi qing‘irliklar ochiqlandi”*; *“Kredit mablag‘larini talon-toroj qilish holatlari aniqlandi”*; *“Namanganda sud raisi va doktorant pora bilan ushlendi”* va hokazo. [6]

5. Ogohlantiruvchi sarlavhalar: ushbu turdagi gazeta sarlavhalari jamoatchilikni tahdidlar, inqirozlar va muhim ijtimoiy, ekologik, texnologik yoki iqtisodiy muammolardan xabardor qilishda muhim rol o‘ynaydi. Ular OAV orqali jamiyatda ijtimoiy mas‘uliyati hisobiga salbiy oqibatlarining oldini olishda qo‘llaniladi: [“Oyoqdagi zamburug‘lar tirnoqlar yemirilishiga sabab bo‘lishi mumkin”](#); *“So‘gal yoki “ortiq” salomatlik uchun xavfli...mi?”*; *“Elektron sigaretlardan qachon voz kechamiz?”*; *“Turkiyada dengiz sathi shiddat bilan ko‘tarilmoqda – qirg‘oq bo‘yidagi shaharlar xavf ostida”*; *“Mutaxassislar yangi pandemiya ehtimoli haqida ogohlantirmoqda”*; *“Internetdagi xavf: kiberhujumlar sonining ko‘payishi shaxsiy ma‘lumotlarni himoya qilishni kuchaytirishni talab qiladi”*; *“Ekstremal ob-havoning kuchayishi iqlim o‘zgarishi belgisidir”*; *“Maxfiylik tahdidi: ma‘lumotlar sizib chiqishi onlayn tranzaksiyalar xavfsizligini shubha ostiga qo‘yadi”* va hokazo.

6. Til va ritorik usullar, so‘roq gaplarning qo‘llanilishi: sarlavhalar voqeaning muhimligi turli nutq uslublarini qo‘llab ta‘sirchanlikni oshirishi, ya‘ni gazetxonlarning e‘tiborini jalb qilish uchun emotsional yoki ishontiruvchi til vositalarini qo‘llash mumkin: *“Shoshilinch xabar: Davlat moliyaviy falokat yoqasida”*; [“Ruslan Nuriddinov — besh karra Osiyo chempioni!”](#); *“Sohir qalam mo‘jizasi”*; *“Tibbiy xatolar faqat mutaxassislarning bilim saviyasiga bog‘liqmi?”* va hokazo.

Sarlavhaning informativ funksiyasi uning qisqa shaklda undan keyin kelayotgan matnning mazmun-mohiyatini uzatib berishda namoyon bo‘ladi. Bunda auditoriyalarning

e'tiborini jalb qila turib, ularni qiziqtirishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni taqdim qiladi, ba'zida hatto auditoriyadan matnning hammasini batafsilroq o'qib chiqishni talab ham qilmay, ularning asosiy detallarini bilish ehtiyojlarini qondiradi. Ingliz gazeta sarlavhalarida informativ funksiyasi ustun bo'lgan sarlavhalarga misollar keltiramiz: [“New Study Shows That Eating More Vegetables Can Reduce Risk of Heart Disease”](#); [“Experts Predict Record-Breaking Sales for Black Friday”](#) [“New Report Finds That Majority of Americans Are Unhappy with Their Jobs”](#) (*The New York Times; Washington Post.; The Los Angeles Times; The Wall Street Journal*) va hokazo. [5]

O'zbek gazetalarida ham informativlikni aks ettiruvchi sarlavhalar mavjud bo'lib, ular erishmoq, uchrashmoq, muloqot qilmoq, topilmoq kabi fe'llar orqali namoyon bo'ladi: “O'n yillik davomida mamlakatdagi inflyatsiya rekord ko'rsatkichlarga erishdi”; “Yangi ilmiy tadqiqotlar: potensial jihatdan xavfli bo'lgan asteroidlar topildi”; “Moliyaviy islohotlar: biznes va investitsiyalarga ta'siri”; “O'zbekiston Prezidenti Qirg'iziston Prezidenti bilan telefon orqali muloqot qildi”; [“Adliya vaziri o'rinbosari Xudoyor Meliyev Birlashgan Arab Amirliklari adliya vaziri o'rinbosari bilan uchrashdi”](#) (Xalq so'zi, Adolat, Yangi O'zbekiston).

Shuning bilan birga yashirin informativlik jihati mavjud sarlavhalar ham uchraydi: *“Havoning global darajada isishi”*; *“Siyosiy inqiroz: oxirgi voqealar va hal qilish istiqboli”* va hokazo.

Reportaj sarlavhasi: *“Bayramni aytsa arzigulik mehnat yutuqlari bilan qarshi olyapmiz”*; *“Shavkat Mirziyoyev ishtirok etgan anjumandan fotoreportaj”* va hokazo.

Ushbu sarlavhalar tegishli axborotning mazmuni haqida ma'lumotni yaqqol ko'rsatadi va mazkur sarlavhalar asosida maqolani o'qib chiqish haqida qaror qabul qiluvchi auditoriyalarning e'tiborini jalb qiladi. [3]

Sarlavhaning informativ funksiyasi auditoriyaning fikrlash faolligini avjlantiradi, nima haqida gap ketayotgan bo'lsa, shunga qiziqish uyg'otadi. Ushbu qiziqish maqolalarning asosiy xususiyati bo'lgan biror bir yangilik, dolzarb va ahamiyatli ma'lumotga asoslangan bo'ladi. Axborotning yangiligi va dolzarbligini muhim omil bo'lib, auditoriya mediamatnga murojaat qilish yoki qilmaslikni belgilaydi, va bu jarayonda sarlavha muhim rol o'ynaydi. Gazeta maqolalarida sarlavhaning bosh funksiyasi auditoriyaga ta'sir ko'rsatishdir. Sarlavhada muallifning pozitsiyasi, tavsiflanayotgan materialga nisbatan uning munosabati yashiringan bo'ladi. Ushbu sarlavhalar muammo yoki ko'rib chiqilayotgan savolga nisbatan muallifning nuqtai nazariga qo'shiluvchi auditoriya uchun mo'ljallangan. Asosiy g'oya butun bir gapda aniq va qisqa qilib ifodalanadi, bunda o'quvchini odatda sarlavha qiziqtiradi, unda qiziqish uyg'otadi va maqolani o'qishga undaydi. Bunda javobini topishga undash usuli, so'roq gapdan foydalanish ham yaxshi natija beradi: *“Why A-Rod Is Grateful for Taylor Swift and Beyoncé?”* (*The Hill Times* 4.12.2023); *“Why Matty Matheson of 'The Bear' Starts the Day With Instant Coffee?”* (*The Wall Street Journal* 04.12.2023) va hokazo.

Chog'ishtirilayotgan tillarda gazeta matnini ta'sir ko'rsatish funksiyasi bilan obrazlilik, emotsionallik va tonallik kabi aspektlar bog'langan bo'ladi. Har ikkala tilda ham gazeta maqolalari mualliflari sarlavhalarda ochiqcha va yashirin ishontirishga yordam beradigan eksplisit fikrlarni bildirishda ishlatadi. [4]

Amerika gazetalarining sarlavhalari nashrning turi va sarlavhalar anonslaydigan maqola turiga qarab o'zgarishi mumkin. Ammo Amerika gazetalarida tez-tez uchrab turadigan strukturaviy elementlar va sarlavhalar turi mavjuddir. Quyida sarlavhalarning bir nechta turi va ularning umumiy strukturaviy belgilari berilgan:

1. Yangilik sarlavhasi. Auditoriya voqeaning mazmun-mohiyatini tez tushunib olishi uchun eng muhim axborotga ega bo'lishi kerakligi ularda til vositalarini tanlashni taqozo etadi: "Attorney general calls B.C. privacy case 'premature,' says federal political parties can 'self-regulate' use of voter data: new documents"; "Feds look for \$13.2-billion boost to budgetary spending to wrap up 2023-24" (The Hill Times 8.03.2023); "[Mini-pod: Joly in Israel, and the week ahead in politics](#)" (The Hill Times 8.03.2024);

Xulosa. Gazeta sarlavhalari, til vositalari auditoriya e'tiborini jalb qilishga qaratilgan bo'lishi lozim. Ingliz va o'zbek gazeta sarlavhalari nafaqat mavzuning qisqacha mazmuni, balki o'quvchiga ta'sir qilish va jamoatchilik qiziqishini uyg'otadigan kuchli vositadir. Shuningdek, gazeta sarlavhalari bosma nashrlarning o'ta muhim elementi bo'lib, o'quvchilar e'tiborini jalb qilishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Sarlavhalar tili maqolaning asosiy g'oyasini qisqa va samarali ifodalash imkonini beruvchi vosita hisoblanadi.

Адабиётлар / Литература / References:

1. Некрасова, А. С. Виды, типы, функции газетного заголовка и его место в тексте статьи СМИ / Актуальные проблемы филологии : материалы III Междунар. науч. конф. – Казань: 2018.
2. Гальперин И.Р. Информативность единиц языка: Учеб. пособие для вузов. – Москва: Наука, 1981. – 198 с.
3. Ронгинский В.М. О тенденции в развитии структуры заголовков // Исследования по грамматике и лексикологии. – Киев: 1966. – 312 с.
4. Салманова С.А. Заголовок как важнейший компонент текста // Рефлексия. 2013. № 1. – С. 74–76.
5. Гальперин И.Р. Информативность единиц языка: Учеб. пособие для вузов. – Москва: Наука, 1981. – 176 с.
6. Белова, Ю. А. Смысл газетного заголовка: трудности интерпретации. – [Электронный ресурс]. – URL: http://bulletin-bsu.com/archive/files/2013/3/36_Belova.pdf
7. Лазарева, Э. А. Заголовок в газете. – Изд-во Урал. ун-та, 1989.
8. Sodikova Bakhtigul Ibodullaevna. (2023). NEO-VICTORIAN NOVEL SCENES AND CHARACTERISTICS IN "THE FRENCH LIEUTENANT'S WOMAN" BY JOHN FOWLES. FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA JURNALI | JOURNAL OF SCIENCE, EDUCATION, CULTURE AND INNOVATION, 2(7), 65–68.
9. Содикова, Б. (2023). ПОЯВЛЕНИЕ ОПРЕДЕЛЕННОГО ТИПА САМОРЕФЛЕКСИВНОЙ МЕТАФИКЦИИ В РАБОТЕ МАНТИССА. Предпринимательства и педагогика, 5(1), 64–69.
10. Содикова, Б., & Бобожонов, Д. (2022). Ўзбек адабиётшунослигида модернизм ва постмодернизм оқимида билдирилган таснифлар. Ренессанс в парадигме новаций образования и технологий в XXI веке, (1), 61–62.
11. Sodikova, B. (2022). JOHN FOWLES AS A WRITER OF EXISTENTIALISTIC AND REALISTIC LITERARY TRENDS, AND HIS PHILOSOPHICAL AND PSYCHOLOGICAL VIEWS. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 2022(1), 176-184.
12. Sodikova Bakhtigul Ibodyullayevna. (2023). Several reason, power and narrative technique in the novel of "The Collector". Journal of Innovation in Education and Social Research, 1(4), 78–86.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 4 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).